O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

2026-yil yanvar-sentabr oylari uchun

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

II. O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish


IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 53 287,5 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 46 905,4 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi –6 052,1 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 330,1 mlrd so'mni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2026-yil yanvar-sentabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urgut (5 180,1 mlrd so'm) va Bulung'ur (4 959,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on (116,2 mlrd so'm) va Samarqand (499,3 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Samarqand viloyati	**53 287,5**	**104,3**
Samarqand shahri.	499,3	83,7
Kattaqo'rg'on shahri	116,2	103,4
Oqdaryo tumani	3 163,4	103,1
Bulung'ur tumani	4 959,0	106,8
Jomboy tumani	4 691,8	106,7
Ishtixon tumani	4 352,8	103,2
Kattaqo'rg'on tumani	4 913,9	103,4
Qo'shrabot tumani	2 564,4	104,6
Narpay tumani	2 233,8	101,9
Payariq tumani	4 276,2	104,5
Patdarg'om tumani	4 629,6	106,8
Paxtachi tumani	1 922,1	102,8
Samarqand tumani	3 173,4	103,7
Nurobod tumani	2 288,1	103,3
Urgut tumani	5 180,1	104,3
Toyloq tumani	4 323,3	105,6

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Bulung'ur (106,8 %), Patdarg'om (106,8 %) Jomboy (106,7 %), va Toyloq (105,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Samarqand shaharida (83,7 %), Narpay tumani (101,9 %) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 46 632,1 mlrd so'mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 22 283,7 mlrd so'mni (105,8 %), chorvachilik mahsulotlari 24 348,8 mlrd so'mni (100,9 %) tashkil qildi.


Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Urgut (5 180,1 mlrd so'm), Bulung'ur (4 959,0 mlrd so'm), Kattaqo'rg'on (4 913,9 mlrd so'm) va Jomboy (4 691,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (116,2 mlrd so'm), Samarqand shahri (499,3 mlrd so'm) va Paxtachi tumani (1 922,1 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Bulung'ur (106,8 %), Pastdarg'om (106,8), Jomboy (106,7 %) va Toyloq (105,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Samarqand hahar (83,7 %) hamda Narpay tumani (101,9) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 59,7 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 33,4 % fermer xo'jaliklariga, 6,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Kattaqo'rg'on (2 606,9 mlrd so'm), Toyloq (2 226,0 mlrd so'm), Pastdarg'om (1 986,1), Urgut (1 929,3 mlrd so'm) va Samarqand (1 654,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (72,6 mlrd so'm), Samarqand shahri (188,1 mlrd so'm) va Paxtachi tumani (903,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Paxtachi tumani (102,6 %), Narpay (102,5 %), Toyloq (102,3 %), Kattaqo'rg'on shahar (102,1 %) qayd etildi.

Samarqand shahar (76,7 %), Jomboy (99,8 %) va Kattaqo'rg'on (99,9 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 228,3 ming tonna go'sht, 895,2 ming tonna sut, 1 346,6 mln dona tuxum, 2 653,1 tonna qirqib olingan jun, 20,1 ming dona qorako'l teri yetishtirildi va 15 912,1 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,3 % ni, sog'ib olingan sut – 100,6 % ni, olingan tuxum – 113,4 % ni, olingan qorako'l teri – 114,6 % ni hamda ovlangan baliqlar – 102,2 % ni tashkil qildi.

2026-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 18,4 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 73,9 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,7 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 12,4 % fermer xo'jaliklari, 87,1 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,5 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

2026-yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Yanvar-sentabr 2026-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht *(tirik vaznda)*, ming tonna	**228,3**	**100,3**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	42,1	100,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	168,6	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	17,6	89,6
Sut, ming tonna	**895,2**	**100,6**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	110,6	100,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	779,3	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,3	92,4
Tuxum, mln dona	**1 346,6**	**113,4**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	423,8	100,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	587,4	118,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	335,5	124,5
Jun, tonna	**2 653,1**	**106,1**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	239,2	159,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 214,8	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	199,1	140,2
Qorako'l teri, ming dona	**20,1**	**114,6**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,3	2,2 m.
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	9,1	100,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,7	122,6
Baliq, tonna	**15 912,1**	**102,2**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7 030,8	103,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	7 237,4	103,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 643,8	91,1

Shu bilan birga, olingan tuxumning 31,5 % fermer xo'jaliklariga, 43,6 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 24,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 9,0 % fermer xo'jaliklariga, 83,5 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 7,5 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Bundan tashqari, olingan qorako'l terining 6,5 % fermer xo'jaliklariga, 45,3 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 48,2 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 44,2 % fermer xo'jaliklariga, 45,5 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 10,3 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go'sht *(tirik vaznda), tonna*	***Sut,*** *tonna*	***Tuxum,*** *ming dona*
Samarqand viloyati	**228 267,5**	**895 176,0**	**1 346 646,1**
Samarqand shahri	2 171,4	2 426,0	65 650,9
Kattaqo'rg'on shahri	899,1	2 543,9	715,8
Oqdaryo tumani	12 944,4	61 972,6	39 046,2
Bulung'ur tumani	13 949,2	61 616,9	65 113,6
Jomboy tumani	11 534,6	64 246,2	144 868,4
Ishtixon tumani	16 993,6	76 512,0	67 365,2
Kattaqo'rg'on tumani	29 779,1	100 656,5	70 149,2
Qo'shrabot tumani	11 568,5	49 013,4	28 207,1
Narpay tumani	7 381,2	69 112,5	50 667,2
Payariq tumani	8 859,4	70 851,2	78 255,1
Patdarg'om tumani	20 179,1	101 430,9	103 828,3
Paxtachi tumani	9 186,0	47 820,7	35 894,1
Samarqand tumani	18 664,6	27 954,3	409 993,0
Nurobod tumani	12 743,9	36 466,8	34 400,6
Urgut tumani	22 759,5	69 469,6	60 293,7
Toyloq tumani	28 653,9	53 082,4	92 197,5

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Bulung'ur (2 723,0 mlrd so'm), Urgut (2 669,3 mlrd so'm), Payariq (2 574,9 mlrd so'm), Ishtixon (2 014,7 mlrd so'm) va Pastdarg'om (1 811,6 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on shahri (17,1 mlrd so'm), Samarqand shahri (274,8 mlrd so'm) va Paxtachi tumani (675,8 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Pastdarg'om (113,0 %), Toyloq (110,7 %), Kattaqo'rg'on (107,5 %) va Bulung'ur (107,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Samarqand shahar (84,3 %), Narpay tumani (99,6 %), Kattaqo'rg'on shahri (101,2 %) va Paxtachi (101,4 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari nisbatan pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Samarqand viloyati	**1 793 714,4**	**107,0**
Samarqand shahri.	47 198,1	65,5
Kattaqo'rg'on shahri	1 015,1	105,2
Oqdaryo tumani	120 791,3	109,9
Bulung'ur tumani	325 689,3	104,0
Jomboy tumani	116 964,3	103,9
Ishtixon tumani	61 460,5	116,9
Kattaqo'rg'on tumani	124 664,9	111,9
Qo'shrabot tumani	68 145,7	107,7
Narpay tumani	82 870,7	104,9
Payariq tumani	184 607,7	108,4
Patdarg'om tumani	126 099,7	108,8
Paxtachi tumani	46 645,6	106,0
Samarqand tumani	103 619,4	117,9
Nurobod tumani	71 364,3	102,6
Urgut tumani	194 926,0	116,3
Toyloq tumani	117 651,8	111,2

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026-yilning 1-oktabr holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 655,8 ming boshga yetdi, (2025-yilning 1- oktabr holatiga nisbatan 1,9 % ga ko'p), sigirlar 616,1 ming boshga (1,8 % ga ko'p), qo'y va echkilar 2 470,1 ming boshga (3,1 % ga ko'p), parrandalar 20 578,4 ming boshga (29,8 % ga ko'p) yetdi.

2026-yilning 1-oktabr holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	**1 655,8**	**101,9**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	122,4	109,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 523,6	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,9	73,8
shundan sigirlar	**616,1**	**101,8**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	57,0	114,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	554,7	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi	4,3	100,5

tashkilotlar

Qo'y va echkilar	**2 470,1**	**103,1**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	296,7	113,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 015,5	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	157,8	104,6
Otlar	**23,2**	**102,8**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7,0	120,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	15,4	101,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,8	49,0
Parrandalar	**20 578,4**	**129,8**
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7 125,5	116,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 717,2	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	7 735,8	191,3

2026-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,4 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,0 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 9,3 % fermer xo'jaliklariga, 90,0 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,7 % ni qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 12,0 % fermer xo'jaliklariga, 81,6 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,4 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 34,6 % fermer xo'jaliklariga, 27,8 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 37,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida eng ko'p yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari hajmi Kattaqo'rg'on (2 990,3 mlrd so'm), Toyloq (2 642,7 mlrd so'm), Pastdarg'om (2 290,8 mlrd so'm), va Urgut (2 244,9 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. O'z navbatida, eng past hajmlar Kattaqo'rg'on shahar (85,5 mlrd so'm), Samarqand shahar (169,2 mlrd so'm) va Paxtachi tumanlarida (1 051,3 mlrd so'm) kuzatildi. Yuqori o'sish sur'atlari Paxtachi (102,6 foiz), Toyloq (102,3 foiz) tumanlarida qayd etildi.

2026-yilning 1-oktabr holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni (Ming bosh)

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Samarqand viloyati	**1 655,8**	**2 470,1**	**20 578,4**
Samarqand shahri.	6,5	8,0	301,5
Kattaqo'rg'on shahri	8,6	8,7	24,5
Oqdaryo tumani	93,6	52,1	2 290,2
Bulung'ur tumani	123,7	150,4	850,4
Jomboy tumani	97,3	130,7	1 467,7
Ishtixon tumani	122,1	84,1	926,8
Kattaqo'rg'on tumani	161,9	171,8	1 816,0
Qo'shrabot tumani	102,3	381,8	1 483,6
Narpay tumani	133,2	115,6	554,7
Payariq tumani	109,1	105,4	602,7
Patdarg'om tumani	212,6	175,9	2 193,5
Paxtachi tumani	88,0	179,1	298,3
Samarqand tumani	50,9	116,3	4 794,9
Nurobod tumani	83,8	628,1	493,6
Urgut tumani	160,7	100,7	549,2
Toyloq tumani	101,4	61,2	1 931,1

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot etishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan er uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa er uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun etishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida erga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:
https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi

Ijrochi:
F.Eshonqulov
66 235-22-01 (3111)

Manzil:
Samarqand shahar Ulug'
Tursunov ko'chasi 82 uy